



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 5-iyul

324-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 2-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarini samarali tashkil etishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 330-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 285-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 29-yanvarda qurilish, uy-joy va kommunal xo‘jaligi, transport hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishlari bo‘yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash, shu jumladan, qurilish sohasida raqamlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish, markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda viloyatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarini samarali tashkil etishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 12-iyundagi 330-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 285-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 2-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarini samarali tashkil etishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 330-son qarori ijrosi haqida”gi 285-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga:

markazlashtirilgan manbalar hisobiga bajarilgan qurilish ishlari bo‘yicha pudrat tashkilotlari hisobotlarini raqamlashtirish hamda amalga oshirilgan xarajatlarni moliyalashtirishni takomillashtirish;

kelgusi yil Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalar bo‘yicha loyiha-qidiruv ishlari, loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish va davlat ekspertizasidan o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni joriy yilda moliyalashtirishni nazarda tutuvchi qo‘shimchalar kiritilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning moliya iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari va tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**N.Xudoyberdiyev**